

**YANGI O‘ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASIDA TINCHLIK VA
BARQARORLIK TARAQQIYOTNING MUHIM OMILIDIR**

Farg‘ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Alijonov Baxtiyor Xoshimovich

Annotatsiya: Ushbu maqolada Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida tinchlik va barqarorlikni ta’minlashning ahamiyati tahlil qilinadi. Jamiyatning ijtimoiy-siyosiy barqarorligi, fuqarolar osoyishtaligi va xavfsizligini ta’minlash mamlakat taraqqiyotining muhim omili sifatida yoritiladi. Shuningdek, tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashning ijtimoiy taraqqiyot, inson farovonligi hamda milliy manfaatlarni ta’minlashdagi o‘rni ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: Yangi O‘zbekiston, taraqqiyot strategiyasi, tinchlik, barqarorlik, xavfsizlik, ijtimoiy taraqqiyot, milliy manfaatlar.

**МИР И СТАБИЛЬНОСТЬ - ВАЖНЫЙ ФАКТОР РАЗВИТИЯ В
СТРАТЕГИИ РАЗВИТИЯ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА**

Ферганский государственный университет

независимый исследователь

Алижанов Бахтияр Хашимович

Аннотация: В статье анализируется значение обеспечения мира и стабильности в Стратегии развития Нового Узбекистана. Освещается роль социально-политической стабильности, общественного спокойствия и безопасности граждан как важных факторов развития страны. Также раскрывается значение укрепления мира и стабильности в обеспечении социального прогресса, благосостояния населения и национальных интересов.

Ключевые слова: Новый Узбекистан, Стратегия развития, мир, стабильность, безопасность, социальное развитие, национальные интересы.

**IN THE DEVELOPMENT STRATEGY OF NEW UZBEKISTAN, PEACE AND
STABILITY ARE IMPORTANT FACTORS OF DEVELOPMENT**

Fergana State University

independent researcher

Alijanov Bakhtiyor Khoshimovich

Abstract: This article analyzes the importance of ensuring peace and stability within the Development Strategy of New Uzbekistan. It highlights social and political stability, public peace, and citizens' security as important factors of the country's development. The

article also examines the role of strengthening peace and stability in promoting social progress, public well-being, and national interests.

Keywords: *New Uzbekistan, Development Strategy, peace, stability, security, social development, national interests.*

KIRISH

XXI asr insoniyat oldiga taraqqiyotning yangi imkoniyatlari bilan bir qatorda murakkab ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ekologik va ma'naviy muammolarni ham qo'yimoqda. Globallashuv jarayonlarining chuqurlashuvi, axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi, geosiyosiy raqobatning kuchayishi, transmilliy xavflar, ekologik muammolar va ijtimoiy ziddiyatlar jamiyat barqarorligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar doirasini kengaytirmoqda. Bunday sharoitda har qanday davlat uchun tinchlik va barqarorlikni ta'minlash nafaqat xavfsizlik masalasi, balki uzoq muddatli taraqqiyotning strategik shartiga aylanmoqda.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida ham tinchlik va barqarorlik masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Yangi O'zbekiston g'oyasi zamirida inson manfaatlarini ustuvor qo'yish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlash, ijtimoiy adolatni qaror toptirish, qonun ustuvorligini mustahkamlash va jamiyatda o'zaro hurmat hamda hamjihatlik muhitini shakllantirish kabi maqsadlar mujassamdir. Davlat va jamiyat boshqaruvida ochiqlik va adolatga asoslangan, odamlar manfaatiga xizmat qiladigon xalqparvar qarorlar qabul qilish tizimi shakllantirildi. Eng muximi, biz ko'p yillar davomida amal qilib kelayotgan “davlat-jamiyat- inson” tamoyilini o'zgartirdik”¹.

Tinchlik va barqarorlikni faqat siyosiy kategoriya sifatida talqin qilish uning mazmun-mohiyatini to'liq ochib bermaydi. Falsafiy nuqtai nazardan tinchlik - inson va jamiyatning o'z kelajagini erkin belgilashiga imkoniyat yaratuvchi ijtimoiy holatdir. Barqarorlik esa jamiyat hayotidagi o'zgarishlarning muayyan izchillik va mutanosiblik asosida kechishini ta'minlovchi ijtimoiy holat sifatida namoyon bo'ladi. Shu nuqtai nazardan, taraqqiyot va barqarorlik o'rtasida dialektik aloqadorlik mavjud. Tinchlik taraqqiyot uchun shart-sharoit yaratsa, taraqqiyotning

Mirziyoyev Sh.M. Inson qadri, uning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlar uchun. – Toshkent: “O'zbekiston” 2022 y. – B. 5.

o'zi jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni bartaraf etish, aholi farovonligini oshirish va ijtimoiy ishonchni kuchaytirish orqali barqarorlikni mustahkamlaydi.

~~~~~ Tinchlik tushunchasi insoniyat tafakkurida qadimdan muhim falsafiy qadriyatlardan biri sifatida shakllangan. Turli davrlarda faylasuflar tinchlikni insonning baxtli hayoti, adolatli jamiyat va ezgulik bilan bog'liq holda talqin qilganlar.

Tinchlikning mazmunini faqat urush yoki qurolli mojarolarning yo'qligi bilan cheklash mumkin emas. Zamonaviy falsafiy yondashuvda tinchlik insonning xavfsizligi, huquq va erkinliklarining ta'minlanganligi, ijtimoiy adolatning qaror topganligi va turli ijtimoiy

guruhlar o'rtasida konstruktiv muloqotning mavjudligi bilan ham belgilanadi. “O'zbekistonning jaxon xamjamiyati, eng avvalo, qo'shni davlatlar bilan do'stona munosabatlarni hamkorlik, o'zaro qo'llab – quvvatlash, tinchlik va totuvlik asosida mustahkamlash hamda rivojlantirish”<sup>2</sup>.

Dunyo miqyosida millatlararo totuvlik va bag'rikenglik demokratik jamiyatning asosiy tamoyillaridan biri sanaladi. Ijtimoiy taraqqiyot jadal va yuksak rivojlanishga erishgan davlatlar tajribasiga ko'ra, har bir halq o'z oldiga ulug' va istiqbolli maqsadlarni qo'yishi hamda uni amalga oshirish salohiyatlari bilan jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallaydi. Zamonaviy davlatlarning maqsadi jamiyatda hamjihatlik va barqarorlik, inson huquq va erkinliklarining samarali himoya qilinishini ta'minlashdan iborat. Bugungi kunda mamlakatimizning taraqqiy etishi avvalambor, undagi tinchlik va barqarorlik, millatlararo totuvlik hamda bag'rikenglik muhitining saqlanishiga shart-sharoit va imkoniyatlar yaratishdan iborat. Yangi O'zbekistonda olib borilayotgan milliy siyosatda, milliy totuvlik va fuqarolik jamiyatining rivojlanishi, millatlar va etnik guruhlar o'rtasida o'zaro hurmat, ishonch, totuvlikni qaror toptirish, demokratik, kuchli fuqarolik jamiyati qurish va siyosiy barqarorlikni ta'minlashning falsafiy omillari katta ahamiyat kasb etadi. Har bir millat, elat va xalq, har qanday ijtimoiy tuzum va davlat muayyan bir tamoyillar va qadriyatlar asosida hayot kechiradi hamda o'z

2O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Muqaddima. – Toshkent. “O'zbekiston” 2023 y. – B.3.

manfaatlari, orzu-umidlari, maqsad-intilishlarini ko'zlab harakat qiladi. Har bir elat va xalq o'zining tarixiy ijtimoiy taraqqiyotida muayyan bir g'oyalar va mafkuralarga tayangan holda rivojlanib, taraqqiy etib boradi. Ijtimoiy hamkorlikka asoslangan, erkin, demokratik jamiyat barpo etishni ko'zlagan davlatimizda milliy mafkura aholining barcha qatlamlarini jipslashtirib, umummanfaat va yagona maqsad yo'lida harakatga chorlaydi. Bunday mafkurada ziddiyatli jihatlar emas, umuminsoniy tamoyillar kuchayib boradi. Har qanday mafkura o'z oldiga muayyan maqsadlarni qo'yadi. Bu maqsadlar pirovard natijaga erishishning yo'llari, vosita va usullarini belgilaydi. Turli - tuman bo'lib o'zgarib turuvchi shakllarni aynan hayotiy kuch boshqarib turadi”<sup>3</sup>.

Bugungi zamonda barqaror taraqqiyot hamda xavfsizlik tushunchalarini ayri tasavvur qilib bo'lmaydi. Qo'shni mamlakatlar chegaradosh hududlari darajasida aloqalar kengayib borayotgani, xalq diplomatiyasi mexanizmlaridan faol foydalanilayotgani ham mintaqada davlatlari munosabatlarini mazmunan boyitmoqda. Qonun chiqaruvchi organlar o'rtasida hamkorlikni kengaytirishga alohida urg'u berilib, parlamentlararo do'stlik guruhlarini shakllantirilmoqda. Barqarorlik va xavfsizlik har bir davlat taraqqiyotining, iqtisodiyoti investitsiyaviy jozibadorligining hal qiluvchi omillari hisoblanadi”<sup>4</sup>.

Millatning shakllanishida ma'naviy omillar muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular millat-elatning abadiyligini ta'minlash imkoniyatidir. Bunday omillar millat taraqqiyoti uchun zaruriy muhim-shart hisoblanadi. Aslida ham millatning abadiyligini, uning barqarorligini ta'minlashning asosiy omili, uning ichki ma'naviy ruhiy salohiyatidir.

“Ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni saqlash, ayniqsa eng qiyin bo‘lgan o‘tmish davrida, davlatning uzoq muddatli istiqboliga mo‘jjallangan aniq siyosatini o‘tkazish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Bu esa, o‘z navbatida, milliy

3Robert Grin. Hokimiyatning 48 qoidasi. – Toshkent: “Info Capital Books” 2022 y. – B.684.

4 <https://religions.uz/news/detail?id=634>

davlatchilikni qaror toptirish, xalqaro munosabatlarni mustaxkamlash, isloh qilinayotgan iqtisodiyotga chet el investitsiyalarini keng jalb etishning asosiy shartidir”5.

Millatlarning salohiyati, qobiliyati, matonati, tabdirkorligi va tinimsiz mehnat bilan hozirgi zamon sivilizatsiyasi moddiy va ma’naviy madaniyati, ularni boyitish va rivojlantirish yo‘llari va usullari yuzaga keltirilgan. Mutaxassislarning hisoblaricha, Yer yuzida uch mingga yaqin millat mavjud. Ular o‘z qatorida insoniyatning o‘rta hisobi bilan 96 foizini birlashtiradilar, faqatgina 4 foizi elatlar va qabilalardir. Har bir millatning soni bir necha o‘n mingdan bir necha yuz milliongacha boradi.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida tinchlik va barqarorlik mamlakatning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy taraqqiyotini ta’minlovchi muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. Tinchlik jamiyatda inson qadri, huquq va erkinliklarini ta’minlash, ijtimoiy farovonlikni oshirish hamda fuqarolarning kelajakka ishonchini mustahkamlash uchun zarur muhitni shakllantiradi. Mamlakatning ko‘p millatli xalqi – O‘zbekiston kelajagi buyuk davlat, degan jipslashtiruvchi g‘oyani qabul qildi. Tanlab olingan islohotlar yo‘lini qo‘llab – quvvatladi”6.

Barqarorlik esa jamiyatdagi islohotlarning izchil amalga oshishi, ijtimoiy adolat va qonun ustuvorligining qaror topishi, millatlararo totuvlik va bag‘rikenglikning mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, tinchlik va taraqqiyot o‘zaro dialektik bog‘liq bo‘lib, biri ikkinchisi uchun zarur shart-sharoitni yaratadi.

Yangi O‘zbekistonning barqaror va farovon kelajagini ta’minlashda tinchlikni asrash, ijtimoiy hamjihatlikni kuchaytirish va inson qadrini yuksaltirish strategik ahamiyatga ega.

5I.Karimov. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida xavsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. –Toshkent: “O‘zbekiston” 1997 y. – B.290.

6 I.Karimov. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida xavsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. –Toshkent: “O‘zbekiston” 1997 y. – B.293.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Inson qadri, uning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlari uchun. –Toshkent: “O‘zbekiston” 2022 y.

2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Muqaddima. –Toshkent: “O‘zbekiston” 2023 y.

20-Sentyabr, 2026-yil

3. Robert Grin. Hokimyatning 48 qoidasi. –Toshkent: “Info Capital Books” 2022 y.
4. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. –Toshkent: “O‘zbekiston” 2022 y.
5. I.Karimov. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. –Toshkent: “O‘zbekiston” 1997 y.
6. <https://religions.uz/news/detail?id=634>

